

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA
KIRUVCHILAR UCHUN**

SAVOLLAR KITOBI

ABITURIYENT: _____
F.I.O. Imzo

ABITURIYENT DIQQATIGA!

Test topshiriqlarini yechishdan avval savollar kitobini varaqlab, unda har bir fan boyicha 36 ta savol mavjudligini tekshiring. Agar savollar soni kamligi aniqlansa yoki savollar kitobi raqami bilan javoblar varag'i raqami bir xil bo'lmasa, darhol auditoriya rahbariga ma'lum qiling.

Savollar kitobida abituriyentning familiyasi, ismi, otasining ismi xato to'ldirilgan yoki to'ldirilmagan va imzosi qo'yilmagan hollarda e'tirozlar ko'rib chiqilmaydi.

Kitob tipi: 32

FANLAR:

Blok 1: Ona tili va adabiyot

Blok 2: Biologiya

Blok 3: Kimyo

Savollar kitobi raqami: **1701313**

Toshkent – 2017

ONA TILI VA ADABIYOT

1. Qaysi gapda so'z qo'llash bilan bog'liq uslubiy xatolik mavjud?
A) *Borliq go'yo suv quyganday jimjit.*
B) *Sizning har bir so'zingiz biz uchun tilladan afzal.*
C) *Usta cho'g'day temirni olovda toblab-toblab oldi.*
D) *Undan bir suratgina yodgor qolgan, xalos.*
2. Unim yo'q, bunim yo'q.
Uyimda unim yo'q.
Ishimda unim yo'q.
Aytishga unim yo'q.
Ushbu parchada o'zaro shakldosh bo'lgan so'zlar qaysi turkumlarga mansub?
A) *1 o'rinda ot, 2 o'rinda olmosh*
B) *2 o'rinda ot, 1 o'rinda olmosh*
C) *2 o'rinda ot, 1 o'rinda olmosh, 1 o'rinda fe'l*
D) *2 o'rinda ot, 2 o'rinda olmosh*
3. So'z asosi imlosi fonetik hodisani keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan so'z yasovchi qo'shimchalarni aniqlang.
1) -la; 2) -qi; 3) -ar; 4) -ay; 5) -illa
A) *1, 2, 4, 5* B) *1, 2, 3, 4* C) *1, 2, 3, 4, 5* D) *2, 3, 4, 5*
4. **parrak, qo'yin, tuk, bu, bo'g'iz, varaq, obro', yuk, ko'ngil, shu**
Berilgan so'zlardan nechtasiga egalik qo'shimchalari qo'shilganda tovush ortishi yuz beradi?
A) 2 B) 4 C) 5 D) 3
5. Berigan hukmlardan qaysi bir(lar)i noto'g'ri?
1) yangi va hozir so'zlarida urg'u birinchi bo'g'inga tushganda o'zaro sinonimlik hosil qila oladi; 2) yangi va hozir so'zlarida urg'u ikkinchi bo'g'inga tushganda o'zaro sinonimlik hosil qila oladi; 3) yangi so'zida birinchi bo'g'inga, hozir so'zida ikkinchi bo'g'inga tushganda ushbu so'zlar o'zaro sinonimlik hosil qila oladi; 4) yangi so'zida urg'u ikkinchi bo'g'inga, hozir so'zida birinchi bo'g'inga tushganda ushbu so'zlar o'zaro sinonimlik hosil qila oladi
A) 2, 3, 4 B) 1 C) 1, 4 D) 1, 2, 3
6. Bola qoshida ota-onaning so'zi-yu ishi bir bo'lmasligi ularning o'z izzat va hurmatlari ildiziga o'z qo'llari bilan urilgan o'tkir boltadir.
Ushbu gapda ishtirok etgan yordamchi so'z turkumlari haqida noto'g'ri hukmi aniqlang.
A) *Bog'lovchilar uyushiq aniqlovchilarni bog'lab kelgan.*
B) *Bir o'rinda vazifadosh, bir o'rinda sof ko'makchi ishtirok etgan.*
C) *Bir o'rinda vazifadosh, bir o'rinda sof bog'lovchi ishtirok etgan.*
D) *Yordamchi so'z turkumlarining har biriga oid birliklar qatnashgan.*
7. So'z birikmasi va qo'shma so'zga oid umumiy fikrlarni toping.
1) qismlari orasidagi grammatik aloqa sezilmaydi; 2) bir xil grammatik shaklga ega bo'lishi mumkin; 3) qismlari bir xildagi so'z turkumlariga oid bo'lishi mumkin; 4) ularni tashkil etuvchi qismlarning har biriga alohida-alohida so'roq berish mumkin
A) 1, 3, 4 B) 1, 2, 4 C) 1, 4 D) 2, 5
8. Qizlarning ichida shu egma qosh yoqadi.
Ajratib ko'rsatilgan so'zlarda qaysi usulda ma'no ko'chishi kuzatiladi?
A) *sinekdoxa* B) *metonimiya* C) *metafora* D) *vazifadoshlik*
9. Qaysi javobdagi barcha fe'llarning asosi omonimlik xususiyatiga ega?
A) *Behudaga dori ichishni qo'ysangiz, dardingiz arib, sog'ayarmidingiz?*
B) *Bog'bon uni so'ligan deb gumon qildi-yu, yulib tashladi.*
C) *Jayron tog'dan tog'ga o'tib, qayerga borishini bilmasdi.*
D) *Karimbek mashinani yo'lga chiqarib, qishloq tomon yurdi.*
10. Quyida berilgan necha so'zning ma'nosi metonimiya usulida ko'chishi mumkin?
samovar, ko'zoynak, zal, qadah
A) 3ta B) 2ta C) 1ta D) 4ta
11. Ravishning ma'nosiga ko'ra ikki turi qatnashgan gapni aniqlang.
A) *U kamtarona tabassum bilan sekin qarab qo'ydi.*
B) *Borib anhordan endi suv ichaman deb engashganimni bilaman, changalzor asta shitirladi.*
C) *Allamahalgacha farg'onalik chorvadorlar o'tovida gurunglashib o'tirdik.*
D) *Norozilik bilan to'ng'illab o'rnimizdan turishga majbur bo'ldik.*
12. Qaysi gapda to'pdan ajratilgan shaxs ma'nosini bildiradigan olmosh ega vazifasini bajargan?
A) *Kela beradilar bari kattakon chinor sari.*
B) *Har bir inson o'z baxti uchun kurashadi.*
C) *Majlisda bu masala haqida hech kim churq etmadi.*
D) *Har birimiz shu jannatmakon yurt tuprog'iga sodiq bo'lmog'imiz kerak.*
13. Quyidagi yordamchi so'zlardan nechitasi vazifadosh ko'makchilarga mansub?
uzra, singari, umuman, qadar, sira, muvofiq, qarab, o'zga, asosan
A) 4 ta B) 6 ta C) 3 ta D) 5 ta
14. Qaysi gapda fe'lning buyruq-istak mayliga oid munosabat shaklining badiiy uslubga xos ko'rinishi qo'llangan?
A) *Men kimga suyangayman, birinchi muhabbatim faqat eslab yongayman, birinchi muhabbatim.*
B) *Qora ko'zum, kel-u, mardumliq emdi fan qilg'il, Ko'zum qarosida mardum kabi vatan qilg'il.*
C) *Ko'rgali husnungni zor-u muftalo bo'ldum sanga, Ne balolig' kun edikim, oshno bo'ldum sanga.*
D) *Yaxshini maqtasang - yarashur, Yomonni maqtasang - adashur.*
15. Ikkala qismidagi eganing shakldoshi mavjud bo'lgan bog'langan qo'shma gapni aniqlang.
A) *Tongga yaqin tuman tushdi va atrofdagi daraxtlar ko'rinmay qoldi.*
B) *Dekabr oyining boshida bir qor yog'di-yu, keyin havo ochildi.*
C) *Olma ikkinchi bor gullasa, bu kuzning iliq kelishidan nishondir.*
D) *Bu yil cho'llarda o't mo'l, chunki yomg'ir ko'p yog'di.*
16. Quyida berilgan so'zlarning nechitasi to'g'ri yozilgan?
dramma, trasa, inspeksiya, kooperativ, magistratura
A) 2tasi B) 1tasi C) 3tasi D) 4tasi
17. O'g'il ham qiz ham albatta uyda ko'chada o'z fe'li muomalasi bilan boshqalarga o'rnak bo'lishi kerak.
Ushbu gapda tushurib qoldirilgan tinish belgilari haqida to'g'ri fikrni aniqlang.
A) *5 o'rinda vergul, 1 o'rinda tire tushurib qoldirilgan*
B) *4 o'rinda vergul, 1 o'rinda tire tushurib qoldirilgan*
C) *6 o'rinda vergul tushirib qoldirilgan*
D) *4 o'rinda vergul tushirib qoldirilgan*
18. Ibora bilan ifodalangan sifatlovchi aniqlovchi egaga tobelangan gapni aniqlang.
A) *Ayollar, yig'lab ko'nglingizni bo'shatishdek ne'mat ato etgani uchun Allohga shukur qiling.*
B) *Ostonada eti borib suyagiga yopishgan qari it cho'zilib yotardi.*
C) *Kampir hayotdan ko'z yumganida qishloqlari uni o'sha ko'chadan ko'tarib o'tishdi.*
D) *Qishloqda beva-bechora, qo'li qisqalarning uyi eng avval tomsuvog' qilinardi.*
19. Ergash gap qismida uyushgan to'ldiruvchi ishtirok etgan ergashgan qo'shma gapni toping.
A) *Sa'diy Sheroziy xalq donishmandligining nodir namunalariga o'z iste'dodi bilan sayqal berib, "Guliston" va "Bo'ston"ni yaratdi.*
B) *Hammasi joyida, do'stlar, men hech kimdan, hech narsadan xafa emasman.*
C) *Xalqimiz o'tmishda ko'plab hokimliklar, xohlik va amirliklar tuzgan, shuning uchun uning ko'plab poytaxtlari bo'lishi tabiiydir.*
D) *Quyosh bosh ko'tarib chiqadi-yu, uxlab yotgan dov-daraxtlar, giyohlar, borliqni uyg'otib yuboradi.*
20. Qaysi gapda nomustaqil o'rin holi qatnashgan?
A) *Bizning ozod Vatanda qish ham qiladi xanda.*
B) *Bizning litseyda o'tkazilgan tadbiri televizor orqali ko'rsatishdi.*
C) *Bizning ko'chada yaxshi odamlar yashashadi.*
D) *Sizning mahallangiz qaysi ko'chada joylashgan?*
21. Yam-yashil o'tloqlarda dumalagan, chang ko'chalarda o'ynagan damlarimni unutilmay qiynalaman.
Ushbu gapda gap bo'laklari nechta tobe bog'lanish hosil qilgan?
A) 7ta B) 8ta C) 9ta D) 6ta
22. Yunonistonlik faylasuf Arastu o'g'lini chaqirib shu so'zlarni aytibdi: - Bolajonim, o'z umrimni ilm-u hikmatning sirlarini o'rganish yo'lida sarf qildim. Ilm-u hikmat nuri bilan juda ko'p tugunlarni yechdim, ammo o'limga chora yo'q ekan.
Keltirilgan parchada necha o'rinda yasama so'z qo'llangan.
A) 4 B) 3 C) 5 D) 2

23. Berilganlardan ikkitadan ko'makchi morfemaga ega bo'lgan tub so'zlarni belgilang.
1) borayotganlar; 2) o'zgarish; 3) kechirim; 4) sog'intirdi; 5) o'qiydigan
A) 2, 3 B) 2, 5 C) 1, 4, 5 D) 1, 4
24. Berilgan qo'shimchalardan qaysilari ismning va fe'lning munosabat shakli sifatida o'zaro omonim bo'la oladi?
1) -sa, 2) -k, 3) -m, 4) -ng, 5) -miz, 6) -ing, 7) -ngiz
A) 2, 3, 5, 6 B) 1, 3, 5, 6 C) 1, 2, 4, 7 D) 3, 4, 5, 7
25. Nodiraning qaysi she'ri o'zbek adabiyotida muashshar janrining yuksak namunasi hisoblanadi?
A) "Xating ishtiyogin savod ayladim"
B) "Fig'onkim, gardishi davron..."
C) "Marhabo"
D) "Firoqnoma"
26. "Sohibqiron" dramasi o'zini "Men shahri Keshdan. Otam sizga sarboz bo'lgan. Dehli jangida shahid ketgan..." deb tanishtirgan qahramonning ismi nima edi?
A) Qosimbek B) Kayxisrav C) Aloviddin D) Barlos Bahodir
27. "Bir tup o'rik. . .
Bodroq-bodroq bo'lib gullaganida
Ko'lankasi bilan do'st tutinibdi", degan misralaar muallifini aniqlang.
A) Muhammad Yusuf B) To'ra Sulaymon C) Mirtemir D) Asqad Muxtor
28. "Nevara" nomli doston yaratgan adibni belgilang.
A) Shuhrat B) E. Vohidov C) Mirmuhsin D) R. Hamzatov
29. Quyidagi berilgan fikrlar qaysi ijodkorga tegishli?
"Bolalikda shuurga singdirilgan ona tiligina qalbni she'riyat bilan sug'orishi, insonda milliy g'urur kurtaklarini uyg'otishi va ajdodlar tilining naqadar serqirra va sermazmun ekanligini anglatishi mumkin. Bolalik nafaqat quvnoq davr, bolalik – inson shaxsi shakllanishining ilkdavri hamdir".
A) T. Malik B) O. Sharafiddinov C) M. Osim D) Ch. Aytmatov
30. Qaysi ijodkor adabiyotni "toza ma'rifat suvi", "buloq suvi" deb tariflaydi?
A) A. Oripov B) Avloniy C) Cho'ipon D) O'. Hoshimov
31. Shoira Anbar Otin qaysi mashhur mumtoz shoiramizning jiyani bo'lgan?
A) Maknuna B) Dilshodi Barno C) Nodirabegim D) Jahon otin Uvaysiy
32. Ogahiy tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan qaysi asar tarixiy hisoblanadi?
A) "Axloqy Muhsiniy" (Koshifiy)
B) "Ravzi us-safo" (Mirxond)
C) "Badoe ul-vaqoe" (Vosifiy)
D) "Shoh va gado" (Hiloliy)
33. "Bir kun yilonlar jam bo'lib aydilar: bizlar laklak bilan murosa qilib qismat qilolir har kunda bir yilonni oning xo'rokiga berali, o'zgimizga zahmat bermasun. Barchalari aydilar: andoq bo'lsun. Bir yilonni elchi qilib laklakning yoniga yibordilar".
Laylak va ilonlar haqidagi hikoyatdan olingan ushbu parcha. qaysi asarda, keltirilgan?
A) "Guliston" (Sa'diy Sheroziy)
B) "Gulistoni bit-turkiy" (Sayfi Saroyi)
C) "Zarbulmasal" (Muhammadsharif Gulxaniy)
D) "Miftoh ul-adl" (Poshshoxo'ja Abdulvahobxoja o'g'li Xoja.)
34. 100000 misradan ortiqroq she'r yozgan, lekin bizgacha 2000 misraga yaqin she'ri yetib kelgan shoir nomini ko'rsating.
A) Fuzuliy B) Rudakiy C) Rumiyy D) Sa'diy
35. Shuhratning "Oltin zanglamas" romanida Sodiqni maktabdagi halol o'qituvchilarni quvg'in qilish, ta'qib ostiga olishda ayblagan adabiy qahramonni aniqlang.
A) Mirsalim B) Sa'dullayev C) Shukurov D) M. Abdurahmonova
36. Aysh-u tarab gulbunig'a suv berib,
G'ussa niholini quritmoq kerak.
Ushbu baytda qo'llangan she'riy san'atlarni toping.
A) tanosub, tazod B) tashbeh, irsoli masal C) tanosub, talmeh D)

tazod, ishtiqoq

BIOLOGIYA

37. Xushboy hidli no'xatning oq gultojbargli navlarini o'zaro chatishtirilganda birinchi avlodning guli qizil rangda (AaBb) bo'ladi. F₂da necha xil fenotipik (a) va genotipik (b) sinflar hosil bo'ladi?
A) a-9, b-16
B) a-2, b-9
C) a-4, b-9
D) a-2, b-16
38. Makkajo'xorida barglarning burishganligi va poyaning past bo'lishi retsessiv belgilar hisoblanib, bitta xromosomada joylashgan. Barglari silliq va normal uzunlikdagi o'simlik barglari burishgan past bo'lyli o'simlik bilan chatishtirilib 1200 ta o'simlik olindi. Shundan 216 ta organizm ota-onaning ayrim belgilarini o'zida mujassamlashtirilgan. Retsessiv belgiga ega bo'lgan organizmlar sonini aniqlang.
A) 492 B) 984 C) 600 D) 108
39. Itning koker zoti junining qora rangi dominant noallel A va B genlarga bog'liq. Faqat A genining dominant holatda bo'lishi junning malla, B genining dominant holatda bo'lishi junning jigarrang, dominant genlarning uchramasligi junning oq rangda bo'lishini ta'minlasa, AaBb x aaBb genotipli organizmlar o'zaro chatishtirilgandan olingan avlodning genotip (I) va fenotip (II) nisbatlarini aniqlang.
A) a-3:1:2:1:1; b-4:2:1:1
B) a-1:1:1:3:1:1; b-2:4:1:1
C) a-2:2:2:1:1; b-3:2:2:1
D) a-1:2:1:1:2:1; b-3:1:3:1
40. Molekulyar massasi 6600 bo'lgan oqsilning sintezi haqidagi ma'lumotni traskripsiya qiluvchi i-RNK uzunligini (nm) toping.
Oqsil tarkibidagi har bir aminokislota qoldig'ining molekulyar massasi 120 ga teng bo'lib, nukleotidlar orasidagi masofa 0,34 nm ni tashkil etadi.
A) 56,1 B) 18,7 C) 51,6 D) 112,2
41. O'simlik mitoxondriyada oksidlanish jarayonida 108 kJ molekula ATF sintezlangan bo'lsa, sitoplazmada qancha energiya (kJ) issiqlik sifatida tarqalgan (a) va shu vaqt davomida xloroplastda hosil bo'lgan ATF molekulasini sonini (b) aniqlang.
A) a-240; b-3420
B) a-240; b-2160
C) a-360; b-3240
D) a-360; b-3420
42. Shimpanze zigotasining birinchi marta ekvatorial bo'linishidan hosil bo'lgan blastomerlardagi jami autosomal sonini aniqlang.
A) 384 B) 288 C) 368 D) 192
43. Bir sinfga mansub o'simliklar navlarini aniqlang.
A) Yulduz, Toshkent-1, Ulug'bek-600
B) Zarg'aldoq, Sangzor, Samarqand-3
C) Zarafshon, Buxoro-9, Nimrang
D) Vatan, Sangzor, Omad
44. Quyidagi berilganlardan to'g'ri ma'lumotlarni aniqlang.
1) sil tayyoqchasi hujayrasidagi halqasimon DNK membrana bilan o'ralmagan; 2) xongul hujayrasi membranasi oqsil va ikki qavat lipid molekullaridan iborat; 3) loviya urug'i hujayrasidagi donador endoplazmatik to'r lipid sintezini amalga oshiradi. 4) ko'k yashil suv o'tlarining hujayralari erkin azotni to'plash xususiyatiga ega; 5) oq po'panak tanasi bir yadroli ko'p hujayralardan iborat; 6) batsidiya hujayralarida lichenin, amilaza, turli vitamin va fermentlar uchraydi
A) 1,6 B) 2,5 C) 3,5 D) 3,4
45. Quyidagi hayvonlarni ularning fanidagi nomi bilan to'g'ri juftlab ko'rsatilgan javobni toping.
1) o'txo'r kaltakesak; 2) toshbaqalar avlodi; 3) baliq kaltakesak; 4) yirtqich kaltakesak; 5) uch shohli kaltakesak; 6) ilon kaltakesak;
a) plakoxelis; b) tritsopetops; c) tiranozavr; d) mezozavr; e) brontozavr; f) ixtiozavr
A) 1-e; 2-a; 3-f; 4-c; 5-b; 6-d
B) 1-b; 2-a; 3-d; 4-e; 5-c; 6-f
C) 1-c; 2-e; 3-f; 4-a; 5-b; 6-d
D) 1-e; 2-d; 3-f; 4-b; 5-c; 6-a

46. Organizm (a) va biogeotsenoz (b) darajadagi hodisalarni aniqlang.
1) gomologik xromosomalar orasida konyugatsiya jarayoni; 2) kapalak qurtining metamorfozi; 3) genlar dreyfi; 4) translokatsiya; 5) lishaynikda suvo't va zamburug'ning o'zaro munosabati; 6) qirg'ovulning kenja turning paydo bo'lishi; 7) yaylovda o'suvchi o'simliklar va o'txo'r hayvonlarning o'zaro munosabati
A) a-3,4; b-7 B) a-2,6; b-3 C) a-2,5; b-2 D) a-1,2; b-3,5
47. Gidrofitt (a) kserofitt (b) ekologik guruhlariga mansub yuksak o'simliklarni aniqlang.
1) ro'vak; 2) suv yong'og'i; 3) sarsazan; 4) iloq; 5) suv qirqqulog'i; 6) buyurg'un; 7) laminariya; 8) qamish
A) a-4,8; b-3,6 B) a-7,8; b-2,5 C) a-1,2; b-3,8 D) a-2,5; b-4,6
48. Kumulyativ polimeriya epistaz irsiylanishdan farq qilib ...
1) allel bo'lmagan genlarning o'zaro ta'siri hisoblanadi;
2) digeterozigota duragaylarning avlodida 5 xil fenotipik sinf hosil bo'ladi;
3) belgining rivojlanishida ikkita gen qatnashib, ulardan biri asosiy gen, ikkinchisi to'ldiruvchi hisoblanadi; 4) belgining rivojlanishi dominant genlar soniga bog'liq bo'ladi; 5) bir belgining rivojlanishi bir necha gen nazoratida bo'ladi;
A) 3,4 B) 2,4 C) 1,2 D) 4,5
49. Odamning orqa miyasiga xos bo'lgan to'g'ri ma'lumotni aniqlang.
A) Orqa miyani o'rab turuvchi pardaning ichki qismi qattiq, ichki o'rtqa qavaqti o'rgimchak to'rsimon, tashqi qavati yumshoq parda deyilib, o'rtqa va ichki parda orasida orqa miya suyuqligi bo'ladi.
B) Orqa miya yuqori qismining dastlabki 8 ta segmentida joylashgan nerv markazlari qo'lning kaft, barmoqlar terisini va qo'lning tashqi yuzasi terisi va muskullar funksiyasini ta'minlaydi
C) Orqa miyani ustidan o'rab turuvchi pardalarning yallig'lanishi meningit deb ataladi va bu kasallikda bemorda hushini yo'qotish, tirishish, belgilari yuzaga keladi.
D) Orqa miyadan chiquvchi simpatik nerv tolalarining birinchi qismi umurtqa pog'onasi atrofida joylashgan nerv tugunlarida tugaydi
50. II qon guruhiga ega rezus musbat, sog'lom o'g'il bolaning katta qon aylanish doirasi arteriyalardagi qon plazmasida qanday moddalar bo'ladi?
A) antitanalar, insulin, agglyutinin β , gemoglobin, glyukoza, fermentlar
B) gormonlar, vitaminlar, antitanalar, glyukoza, agglyutinogen A
C) antigemofil omil, agglyutinin β , gormonlar, vitaminlar, rezus omil
D) aminokislota, mochevina, kreatinin, tiamin, agglyutinin β
51. Odamdagi o'mrov osti muskulining bo'yinning teri osti muskulidan farqini toping.
1) vegetativ nerv sistemi orqali boshqariladi; 2) joylashuv ko'ra to'sh-o'mrov so'rg'ichsmon muskul bilan bir guruhga kiradi; 3) joylashuviga ko'ra diafragma muskuli bilan bir guruhga kiradi; 4) gavdaning ko'krak muskuli hisoblanadi; 5) suyakka birikadi; 6) boshning harakatini ta'minlaydi; 7) qo'lning harakatida ishtirok etadi
A) 1,4,5 B) 1,5 C) 2,6 D) 3,4,7
52. Odam organizmida ishlab chiqiriladigan oqsil (a) va lipid (b) tabiatiga ega gormonlar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
1) tripsin; 2) insulin; 3) androsteron; 4) pepsin; 5) somatotrop; 6) melanin; 7) estrogen; 8) xolesterol
A) a-2,5,6; b-6,8
B) a-4,6; b-2,5
C) a-1,5; b-7,8
D) a-2,5; b-3,7
53. Sezgi analizatorlari haqidagi noto'g'ri fikrni aniqlang.
A) Terining derma qavatida sovuqni va siypalashni sezuvchi retseptorlar issiqni va og'riqni sezuvchi retseptorlarga nisbatan chuqurroq joylashgan.
B) Gipermetropiya keksalarda ko'z gavhari do'ngligining ortib ketishi ufaqli yuzaga keladi.
C) Quloqning suyak labirinti bilan parda labirinti orasida perilmifa, parda labirinti ichida endolimfa suyuqligi bo'ladi.
D) Harakat analizatorining oliy nerv markazi bosh miya katta yarimsharlari po'stlog'ining orqa markaziy egatida joylashgan.
54. Gidrasimonlar qaysi hayvonlardan kelib chiqqan (a), gidrasimonlardan qaysi hayvonlar (b) kelib chiqqan?
A) a- koloniya bo'lib yashovchi geterotrof bir hujayralilardan; b- korall poliqlar
B) a- koloniya bo'lib yashovchi poliqlardan; b- meduzalar
C) a- yashil pigmentga ega bo'lmagan koloniya bo'lib yashovchi ko'p hujayralilardan; b- meduzalar
D) a- koloniya bo'lib yashovchi avtotrof bir hujayralilardan; b- meduzalar
55. Qisqichbaqada ham, butli o'rgimchakda ham qorin qismida joylashgan a'zolari ko'rsating.
1) zahar bezi; 2) oshqozon; 3) ichak; 4) jinsiy bez; 5) traxeya; 6) o'pka xaltasi; 7) yurak; 8) nerv zanjiri; 9) so'gallar; 10) yurish oyoqlari
A) 5,6 B) 3,8 C) 1,2,10 D) 4,7,9
56. Alligator bilan bir sinfda (a) va begemot bilan bir turkumga (b) birlashtirilgan hayvonlar to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.
A) a-gekkon, kobra, gaviyal; b-arxar, g'izol, zuhr
B) a-And kondori, kobra, ilonbo'yin toshbaqa; b-arxar, bizon
C) a-aureliya, kabarga, yelik; b-to'ng'iz, gibbon, oqcha
D) a-kaputsin, kapcha, gatteriya guattara; b-mufilon, g'izol, bizon
57. Leyshmaniya va sil batsillasi uchun umumiy bo'lgan xususiyatlarni aniqlang.
A) Eukariot organizm, irsiy axboroti sitoplazmadagi halqasimon DNKda joylashgan.
B) Bir hujayrali organizm, hujayra qobig'i xitindan iborat.
C) Yadrosi ikki qavat membrana bilan o'ralgan, reduplikatsiya jarayoni sitoplazmada kechadi.
D) Membranasini ikki qator lipid va oqsil molekularidan iborat, ribosomasi sitoplazmada translyatsiyada qatnashadi.
58. Jag'larida faqat kurak va oziq tishlari mavjud hayvonlarni aniqlang.
1) larcha; 2) ondatra; 3) norka; 4) qashqaldoq; 5) nutriya; 6) tovushqon; 7) sug'ur; 8) suqsun; 9) yumronqoziq; 10) olaqozan
A) 1,3,4 B) 2,5,7 C) 5,9,10 D) 6,7,8
59. Golji apparatiga ega bo'lgan kasallik qo'zg'atuvchilarni aniqlang.
1) tripanosoma; 2) gommooz qo'zg'atuvchisi; 3) vertisillium; 4) qorakuya; 5) bezgak paraziti; 6) quturish kasalligi qo'zg'atuvchisi; 7) qoqshol qo'zg'atuvchisi; 8) qizilcha qo'zg'atuvchisi; 9) leyshmaniya qo'zg'atuvchisi; 10) ichburug' amyobasi
A) 1,6,10 B) 2,5,7 C) 8,9,10 D) 1,3,4
60. Xloroplastlarga ega eukariot organizmlarga zarar keltiruvchi xloroplastlarga ega bo'lmagan eukariot organizmlarni aniqlang.
1) gommooz qo'zg'atuvchisi; 2) nozema; 3) vertisill; 4) agrobakterium; 5) leyshmaniya; 6) zang zamburug'i; 7) tamaki mozaikasi
A) 1,4 B) 2,5 C) 6,7 D) 3,6
61. Qaysi jarayonlar mitoz uchun xos emas?
1) profaza, metafaza, anafaza, telofaza bosqichlarining bo'lishi; 2) ikkita bir xil irsiy axborotga ega gaploid to'plamli hujayralarning hosil bo'lishi; 3) gomologik xromosomalarning ajralib har hil xujayralarga tarqalishi; 4) gaploid to'plami mikrosporan bo'linishi; 5) telofazadan so'ng doim sitokinez sodir bo'lishi; 6) diploid to'plami arxeosperaning bo'linishi
A) 4,5,6 B) 1,2,5 C) 3,6 D) 3,4
62. Genotipik (a) va fenotipik (b) o'zgaruvchanlik bilan bog'liq hodisalarni aniqlang.
1) krossingover natijasida genlar rekombinatsiyasi; 2) meyozi jarayonida xromosomalarning tasodifiy tarqalishi; 3) belgining reaksiya normasi doirasida o'zgarishi; 4) genlarning tuzilishi saqlangan holda ularning namoyon bo'lishining o'zgarishi; 5) urug'lanish jarayonida gametalarning tasodifan qo'shilishi.
A) a-3; b-4,5 B) a-2,5; b-3 C) a-1,2; b-4,5 D) a-2,4; b-1,3
63. BamHI restriktazasi GGATCC nukleotidlar ketma-ketligini tanib, GG nukleotidlari orasidagi bog'larni kesadi. Maxsus sharoitda 134,3 nm uzunlikdagi DNK molekulasini BamHI restriktazasi orqali A,B,C,D,E bo'laklarga bo'lindi. Hosil bo'lgan barcha DNK bo'laklaridagi jami vodorod bog'lar soni dastlabki DNK molekulasidagi vodorod bog'lar sonidan 4% ga kam. Agar nukleotidlar orasidagi masofa 0,34 nm ekanligi ma'lum bo'lsa, dastlabki DNK molekulasini tarkibidagi nechta vodorod bog'lari A va T nukleotidlari orasida joylashgan?
A) 480 B) 354 C) 370 D) 320
64. Ildizdagi murtakdan yangi novda hosil qiladigan, barglari murakkaab o'simliklar to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.
1) shirinmiya; 2) terak; 3) na'matak; 4) olma; 5) o'rik; 6) gilos; 7) yantoq
A) 4,6 B) 2,7 C) 3,5 D) 1,3
65. Bodiyon (a) va bo'tako'z (b) ning to'pguliga xos belgilarni aniqlang.
A) a-umumiy gulpoya qisqa, gullar bir tekislikda joylashgan; b-uzun

gulpoyada gullar ketma-ket joylashgan

B) *a-asosiy gulpoyasi shoxlangan; b-atrofi o'rama bargchalar bilan o'ralgan*

C) *a-asosiy gulpoyasi shoxlanmagan; b-asosiy gulpoyasi shoxlangan*

D) *a-atrofi o'rama bargchalar bilan o'ralgan; b-gullar gulpoyaga uzun bandlar bilan birikadi*

66. Ko'p urug'li quruq (a) va bir urug'li ho'l (b) meva hosil qiluvchi o'simliklarni aniqlang.
1) g'o'za; 2) javdar; 3) gilos; 4) nok; 5) shaftoli; 6) olxo'ri; 7) loviya; 8) lola
A) a-1,2; b-3,6
B) a-8; b-3,5
C) a-7; b-4,8
D) a-2,7; b-5,6
67. Quyida keltirilgan madaniy o'simliklar orasidan har xil markazdan kelib chiqqan o'simliklarni aniqlang.
1) sholi; 2) sabzi; 3) qalampir; 4) loviya; 5) banan; 6) shakarqamish; 7) tariq; 8) kofe daraxti
A) 2,7 B) 5,8 C) 1,6 D) 3,4
68. Spirogira (I) va ossillatoriya (II) uchun xos bo'lgan belgilarni toping.
1) hujayra markazi xujayra bo'linishida ishtirok etadi; 2) tarkibida xlorofill pigmenti mavjud; 3) erkin azotni o'zlashtiradi; 4) irsiy material yadroda joylashgan; 5) donador endoplazmatik to'rdada oqsillar sintezlanadi; 6) mitoxondriyada kislorodli oksidlanish sodir bo'ladi
A) I-3,6; II-4,5 B) I-1,4; II-5,6 C) I-3,5; II-2,4 D) I-3,6; II-2,4
69. Funariyada sporadan rivojlanuvchi bo'g'inda qanday qismlar hosil bo'ladi?
1) yashil ipcha; 2) kurtakcha; 3) poya; 4) barg; 5) arxegoniya;
6) sporangiyband; 7) anteridiy; 8) sporalar; 9) rizoid; 10) sporangiy
A) 1,2,9 B) 5,7,8 C) 6,8,10 D) 3,4,10
70. Evolyutsion taraqqiyot jarayonidagi nisbatan yosh organizmlarni aniqlang.
1) yantoq; 2) zuhrasoch; 3) qirqquloq; 4) oq zamburug'; 5) qo'zidumba; 6) oddiy jag'-jag'; 7) nemalion; 8) ulva
A) 1,6 B) 7,8 C) 2,3 D) 4,5
71. Quyida keltirilgan madaniy o'simliklar orasidan bitta markazdan kelib chiqqan o'simliklarni aniqlang.
1) makkajo'xori; 2) ananas; 3) g'o'za; 4) tamaki; 5) zig'ir; 6) karam; 7) loviya; 8) suli
A) 2,7,8 B) 1,5,8 C) 2,4,6 D) 1,3,7
72. Hind fili va Afrika filining (a), zubr va bizonning (b) kelib chiqishi qanday jarayonlar natijasi hisoblanadi?
A) *a-simpatrik tur paydo bo'lish, b-simpatrik tur paydo bo'lish*
B) *a-allopatrik tur paydo bo'lish, b-simpatrik tur paydo bo'lish*
C) *a-simpatrik tur paydo bo'lish, b-allopatrik tur paydo bo'lish*
D) *a-allopatrik tur paydo bo'lish, b-allopatrik tur paydo bo'lish*

KIMYO

73. Tabiiy kauchukning monomerini aniqlang.
A) *butadiyen-1,3*
B) *divinil*
C) *2,3-dimetilbutadiyen-1,3*
D) *2-metilbutadiyen-1,3*
74. Viniliden florid molekulasida I-uglerod atomining oksidlanish darajasini aniqlang.
A) +1 B) +2 C) -2 D) -1
75. $H_2SO_4 \rightarrow S \rightarrow H_2S$ qatorda quyidagi qaysi xossa ortadi?
A) *dissotsiyanlash darajasi*
B) *qaytaruvchilik*
C) *oksidlovchilik*
D) *suvda eruvchanligi*
76. Bir xil aminokislota qoldig'idan tarkib topgan 64,8 g dipeptid yetarli miqdordagi xlorid kislotasi eritmasida gidrolizlanganda 92,1 g modda hosil bo'ladi. Aminokislota ni aniqlang.
A) *valin* B) *alanin* C) *glitsin* D) *leysin*
77. Fosfor mo'l miqdordagi kislorodda yondirilganda olingan oksid 200 g 9,8% li fosfat kislotasi eritmasida eritilganda fosfat kislotasi miqdori 3 marta ortdi. Olingan eritmaga o'yuvchi natriy eritmasidan 360 g qo'shilganda hosil bo'lgan tuz massasini (g) aniqlang. Ishqor eritmasida suvning massasi NaOH

massasidan 6,5 marta katta.

A) 85,2 B) 72 C) 98,4 D) 14,2

78. Etilenni kumush tuzi bilan katalizatorligida havo kislorodi bilan oksidlanganda olingan A birikma gidrolizga uchratildi va B birikma hosil bo'ldi. B moddani yana etilenni Vagner reaksiyasi bo'yicha oksidlab ham olish mumkin. B modda massasi dastlabki etilennikidan 25,5 g ga ortiq bo'lsa, A birikma massasini (g) aniqlang.
A) 45 B) 46,5 C) 33 D) 26,4
79. 0,4 mol to'yingan bir atomli spirtning 1/4 qismi yonishdan olingan CO₂ massasi shu spirtning 3/4 qismi oksidlanishdan olingan aldegid massasidan 4,4 ga kam. Spirtni aniqlang.
A) *metanol* B) *etanol* C) *propanol* D) *butanol*
80. Noma'lum alken tarkibida sp² – gibril orbitalar sonining sp³ – gibril orbitalar soniga nisbati 3/4 bo'lsa, alkenni aniqlang.
A) *buten* B) *propen* C) *penten* D) *geksen*
81. 33,6 g MeOH bilan 0,3 mol sulfat kislotani yoki necha gramm ortafosfat kislotani to'la neytrallashtirish mumkin?
A) 9,8 B) 6 C) 4 D) 19,6
82. Asetilenni dimerlanishidan (kat. NH₄Cl va CuCl₂) hosil bo'lgan moddani aniqlang.
A) *benzol* B) *polietilen* C) *butadiyen-2,4* D) *vinilasetilen*
83. O'zaro izomer bo'lgan ikkita aromatik uglevodorod kaliy permanganatning kislotali eritmasi bilan oksidlanganda 1,4 mol CO₂ gazi, 0,2 mol benzoy kislotasi va 0,4 mol tereftal kislotasi hosil bo'ldi. Benzoy kislotani hosil qilgan aromatik uglevodorod massasini (g) aniqlang.
A) 38 B) 45 C) 26,8 D) 53,6
84. Kaliy permanganat va natriy nitratdan iborat (mol nisbati 1:1) aralashma qizdirilganda olingan kislorod mis naychadan o'tkazildi. Bunda mis naychani 40%i oksidlandi. Olingan nay 320 g 98%li sulfat kislotada to'liq erisa, boshlang'ich aralashmadagi natriy nitrat massasini (g) aniqlang.
A) 34 B) 17 C) 54,4 D) 68
85. Quyidagi berilgan birikmalarda bog'ning qutbliligi qanday o'zgaradi?
NH₃ → HF, CH₄ → H₂O
a) ortadi; b) kamayadi;
A) 1-a; 2-b; 3-b B) 1-b; 2-a; 3-a C) 1-a; 2-b; 3-a D) 1-b; 2-a; 3-b
86. CO va CO₂ gazlar aralashmasining 16,8 litri (n.sh)da 14,5•N_A dona elektron bo'lsa, aralashmaning massasini (g) toping.
A) 18 B) 36 C) 27 D) 29
87. Ammiak sintez qilish jarayonida reaktordagi bosim 25% ga kamaydi. Boshlang'ich aralashmadagi azot bilan vodorod miqdori stexiometrik nisbatda bo'lsa, reaksiyadan keyin hosil bo'lgan gazlar aralashmasining hajmiy tarkibini aniqlang.
A) 1/9; 5/9; 1/3
B) 3/10; 3/10; 2/5
C) 1/6; 1/2; 1/3
D) 1/4; 1/4; 1/2
88. ${}^{238}_{92}\text{U} + 10\alpha \rightarrow \text{E} + \text{A} + \text{p} + 7\text{n}$
Ushbu yadro reaksiyasida E element izotopi massasi Uran izotopi massasidan 4/5 marta, A element izotopi massasidan esa 2,4 marta katta. E elementdagi elektronlar soni A element elektronlari sonidan 43 taga ko'p bo'lsa, E element izotopi yadro zaryadi ayirmasini aniqlang.
A) 115 B) 118 C) 122 D) 112
89. 0,03 mol Na₂SO₄·10H₂O va Na₂CO₃·8H₂O aralashmasining to'liq degidratlanishidan 0,28 mol suv hosil bo'ldi. Kristallogidratlarning mol nisbatini toping.
A) 2:1 B) 2,5:1 C) 1:1 D) 1:3
90. Quyida berilgan moddalar tarkibidagi σ-bog'lar soni qanday o'zgaradi?
(CuOH)₂CO₃ → HgCl₂ → FeS₂ → PH₃
a) ortadi; b) kamayadi; c) o'zgarmaydi.
A) 1-b; 2-c; 3-b
B) 1-c; 2-b; 3-a
C) 1-b; 2-c; 3-a
D) 1-b; 2-a; 3-c

91. $A + xB \rightarrow 2C$ reaksiyaning $0,05 \cdot 10^2$ mol A moddani 20% sarflangan. B ning 25% ortib qolgan. Jarayon 1 litrli idishda olib borilgan bo'lsa, B ning necha moli sarflangan? $K_m=1$)
A) 2 B) 4 C) 3 D) 1
92. KOH ning qaynoq eritmasi orqali xlor gazi o'tkazilganda hosil bo'lgan eritma bug'latildi va katalizator ishtirokida qizdirish davom ettirildi. Hosil bo'lgan aralashma tarkibida 0,05 mol $KClO_3$ va 0,55 mol KCl bo'lsa, $KClO_3$ ning parchalanish unumini (%) toping.
A) 60 B) 50 C) 10 D) 25
93. 200 g 43,1% Na_2HPO_4 eritmasiga yetarli miqdorda 100 ml H_3PO_4 eritmasi qo'shildi. Bunda olingan eritmadagi NaH_2PO_4 tuzining massa ulushi Na_2HPO_4 tuzining massa ulushidan 3 marta kam bo'ldi. Qo'shilgan H_3PO_4 eritmasining molyarligini aniqlang.
A) 1 B) 4 C) 2 D) 3
94. Biror bir tuzning $90^\circ C$ dagi eruvchanlik koeffitsiyenti $60^\circ C$ dagi eruvchanlik koeffitsiyentidan 3 barobar ko'p shu tuzning $90^\circ C$ da to'yingan 240 g eritmasi $60^\circ C$ ga sovutilganda 60 g tuz cho'kmaga tushishi ma'lum bo'lsa, tuzning $90^\circ C$ dagi eruvchanlik koeffitsiyenti aniqlang.
A) 30 B) 10 C) 60 D) 20
95. Eritmadagi H^+ ionlari OH^- ionlaridan 10^{10} marta ko'p bo'lsa, eritmaning pOH qiymatini toping.
A) 10 B) 12 C) 5 D) 4
96. $XO_4^{3-} \rightarrow X^{3-}$ Ushbu qaytarilish jarayonida X^{3-} qabul qilgan elektronlar soni dastlabki X ning protonlari sonidan $33/8$ marta kam bo'lsa, noma'lum elementni aniqlang.
A) P B) As C) N D) Sb
97. $KOH \rightarrow KHCO_3 \rightarrow CH_3COOK \rightarrow KCl$ reaksiya unumlari mos ketma-ketlikda 75, 80, 50% bo'lsa va KCl massasi reaksiya uchun olingan KOH massasidan 33,65 g ga kam bo'lsa, nordon tuzning massasini (g) aniqlang.
A) 100 B) 75 C) 80 D) 120
98. 500 g 8% li mis (II) sulfat eritmasi elektroliz qilinganda 5,2017% eritma olindi. Eritmadan necha faraday tok o'tganini aniqlang.
A) 5,5 B) 1 C) 1,5 D) 0,5
99. Metallning galogenli birikmasi tarkibida 80% galogen, uning oksidi tarkibida 28,57% kislorod bor. Galogenni aniqlang.
A) flor B) yod C) xlor D) brom
100. Mo'l miqdordagi uglerod Al_2O_3 va CaO aralashmasiga qo'shib qizdirilganda hosil bo'lgan moddalarga yetarli miqdorda xlorid kislota ta'sir ettirildi. Bunda ajralgan gazlarni bromli suv orqali o'tkazilganda idishning massasi 15,6 g ga ortdi. Qolgan gazni yoqish uchun esa 4 mol havo sarflandi. Dastlabki aralashmadagi oksidlarning massalarini g aniqlang. (Havo tarkibida hajm bo'yicha 20% O_2 bor)
A) 13,6; 16,8
B) 54,4; 67,2
C) 27,2; 33,6
D) 27,2; 1,365
101. 0,5 mol litiy va kadmiydan iborat aralashma tarkibidagi litiyning mol ulushi kadmiyning massa ulushiga teng bo'lsa, kadmiyning massasini (g) hisoblang.
A) 22,4 B) 11,2 C) 28 D) 16,8
102. $Na_2SO_4 \cdot xH_2O$ kristallogidrat ohista qizdirilganda $Na_2SO_4 \cdot 6H_2O$ tarkibli kristallogidrat hosil bo'ldi. Hosil bo'lgan suv bug'i dastlabki kristallogidrat tarkibidagi suvning $2/5$ qismini tashkil etsa, kristallogidrat tarkibini aniqlang.
A) $Na_2SO_4 \cdot 12H_2O$
B) $Na_2SO_4 \cdot 15H_2O$
C) $Na_2SO_4 \cdot 8H_2O$
D) $Na_2SO_4 \cdot 10H_2O$
103. $xCaCO_3 = yCaCO_3 + zCaO + zCO_2$ ifodada x, y, z, koeffitsiyentlarning eng kichik butun qiymatdagi nisbatlari 5:1:4:4 bo'lsa, reaksiyaning mahsulot unumini (%) aniqlang.
A) 60 B) 80 C) 75 D) 50
104. Noma'lum gazning CO_2 bilan aralashmasida uning massa ulushi 17,5%, hajmiy ulushi esa 25% ga teng bo'lsa, noma'lum gazni aniqlang.
A) N_2
- B) Ne
C) C_2H_2
D) CH_4
105. Rux metalli ikki xil konsentratsiyali nitrat kislotalarda eritilganda ajralgan NO va N_2O larning hajmlari teng bo'lsa, reaksiyaga kirishgan Zn larning mol nisbatni aniqlang.
A) 3:8 B) 3:4 C) 2:1 D) 1:1
106. Laboratoriya natriy nitritdan azot olish jarayonida azot bilan birga qo'shimcha sifatida NH_3 , NO va O_2 gazlar aralashmasi ajralib chiqadi. Shu aralashma tarkibidagi azot (II) oksid qanday ajratib olinadi?
A) qizdirilgan mis ustidan o'tkazilib
B) nitrat kislota eritmasidan o'tkazilib
C) temir (II) sulfat eritmasidan o'tkazilib
D) distillangan suvdan o'tkazilib
107. 1827-yil V.Seyze tomonidan platina Pt(II) ning π -kompleksi olindi. $CH_2=CH_2 + K_2[PtCl_4] + H_2O \rightarrow$ Seyze tuzi + KCl Ushbu reaksiyaga muvofiq Seyze tuzining formulasini belgilang.
A) $K[C_2H_3PtCl_3] \cdot H_2O$
B) $K[C_2H_4PtCl_3] \cdot H_2O$
C) $K[C_2H_4PtCl_4] \cdot H_2O$
D) $K[C_2H_4PtCl_2] \cdot 2H_2O$
108. Metan quyosh nuri ta'sirida xlorlansa, reaksiya portlash bilan borib, 18 g qattiq modda hosil bo'ladi. Reaksiya uchun kerak bo'ladigan xlor hajmini (litr, $t=0^\circ C$, 101,325 kPa) hisoblang.
A) 67,2 B) 56 C) 44,8 D) 89,6